

OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT TAMOYILLARINING O'ZIGA XOS O'RNI

Uzakova Muborak Azizbek qizi

Andijon davlat universiteti 1-kurs Magistranti (O'zbekiston)

Annotatsiya: ushbu maqolada oilaviy korxonalar va ularning faoliyati, ularni boshqarishda menejment tamoyillarining o'ziga xos o'rni haqida so'z boradi.

Аннотация: в данной статье идёт речь о семейных предприятиях и их деятельности, об особой роли принципов менеджмента в их управлении.

Abstract: This article talks about family businesses and their activities, the special role of management principles in their management.

Kalit so'zlar: oilaviy korxona, faoliyat, tamoyil, iqtisodiy obyektlar, menejment tamoyillari, oilaviy korxona ishtirokchilari, inson resurslari, kompaniya.

Ключевые слова: семейное предприятие, деятельность, принцип, экономические объекты, принципы управления, участники семейного предприятия, человеческие ресурсы, компания.

Key words: family enterprise, activity, principle, economic objects, management principles, participants in a family enterprise, human resources, company.

Oilaviy korxona - Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.[1]

Yuqorida qayd etilganidek oilaviy korxona faoliyati uning ishchilarining shaxsiy mehnatiga bog'liq. Ishchirokchilar qanchalik samarali va unumli mehnat qilishda korxona ham rivojlanadi. Ammo, korxonanai qolaversa inson inson resurslarini to'g'ri boshqarish ularga ishga vazifaga oqilona yo'naltirish oson ish emas. Aynan shunday hollarda menejment tamoyillari eng yaxshi vosita hisoblanadi, chunki unda ishchilarni boshqarish san'ati namoyon etilgan.

Tamoyil – bu faoliyat yuritish hulqning asosiy g'oyasi, yetakchi g'oyadir. Ilmiy adabiyotlarda odatda menejment tamoyillari deganda iqtisodiyotga

rahbarlik qilishga asoslaniladigan asosiy qoida, yo'l yo'riq, hulq me'yorlari tushuniladi.

Menejmentning asosiy tamoyillari esa quyidagilardir:

- Menejmentda yakkaboshchilik va kollegiyalik tamoyili;
- Ilmiylik tamoyili;
- Rejalilik tamoyili;
- Menejment shakl va usullarini takomillashtirib borish tamoyili;
- Kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyili;
- Agentlarni mustaqilligi va erkinligi tamoyili;
- Shaxsiy tashabbus tamoyili;
- Javobgarlik va tavakkalchilik tamoyili.[2]

Ushbu tamoyillar har qanday iqtisodiy obyektlarni boshqarishda samarali hisoblanadi. Negaki, iqtisodiy obyektlar inson kuchi bilan boshqariladi va faoliyati amalga oshiriladi. Misol uchun, yakkaboshchilik va kollegiyalik tamoyilini qo'llashning sharti har bir boshqaruvchi o'z huquq va majbiriyatlarini aniq bilib olib ularni amalga oshirishdan iborat. Keying tamoyil esa korxona o'z faoliyatini ilmiy asosda amalga oshiri kerakligi aytildi, bundan asosiy maqsad esa boshqaruvchilarining shaxsiy fikrlaridan ko'ra ilmiy o'rganilgan faoliyatlarni amaliyotga qollash hisoblanadi. Uchunchi tamoyil, rejalilik tamoyili ham muhim hisoblanadi. Negaki, korxona amalga oshirayotgan ishlarini reja asosida, ya'ni qancha mahsulot ishlab chiqarmoqchi bo'lganini, uni qaysi bozorda sotmoqchiligin va qolaversa bu amaliyotlarni qancha ishchi bilan qaysi vaqt oralig'ida amalga oshirishi kerakligini hisoblab, rejalashtirib olishi kerak. Menejment shakl va usullarini takomillashtirish tamoyilda esa menejmentning asosiy shakllari bo'lgan: xususiy, jamaa va davlat boshqaruvi har uchallasida ham o'ziga yarasha ustunlik va kamchiliklari mavjud bo'lib, bir-biridan anashu jihatlari orqali farqlanadi. Keying kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyili esa hozirgi zamonda juda ham aktual hisoblanadi, chunki ishchilarni ularning kasb va malaka mahoratlaridan kelib chiqqan holda vazifa berish ishni samarali yakunlanishiga turtki bo'la oladi. Navbatdagi, agentlarni mustaqilligi va erkinligi tamoyili ham yuqoridagi tamoyil singari juda muhim hisoblanadi. Keying shaxsiy tashabbus tamoyili esa bozordagi raqobatni yengishga yordam beradi, chunki raqobatdoshlarni yengish uchun korxonada yangiliklar va ko'plab tashabbuslar amalga oshirilishi kerak hisoblanadi. Javobgarlik va tavakkalchilik tamoyili, bunda har bir ishchi ayniqsa korxona boshlig'I korxona uchun javobgarligini his qilgan holda qarorlar qabul qilishi hamda vakolatlarni bo'lib berishi lozim. Ushbu jarayonda esa tavakkalchilik zarur bo'ladigan holatlar ham bo'ladi, albatta.

Oilaviy korxona ishtirokchilari - Er, xotin, ularning bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to'lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opasingillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog'a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin.[3] shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bir oila bir korxona bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasining 2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, 67916 ta oilaviy korxona mamlakatimizda faoliyat yuritmoqda. Quyidagi jadvalda esa oilaviy korxonalarining yillar kemida o'sish suratini ko'rishimiz mumkin.

So'nggi besh yilning mos davrlarida ularning o'sish dinamikasi quyidagicha: [4]

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
Soni	29953	46956	56547	64449	64916

Yuqoridagi jadvalda, oilaviy korxonalar soni so'ngi besh yil ichida 2 barobarga ko'paygan. Bundan ko'rinish turibdiki o'z-o'zini band qilayotgan oilalar soni yildan yilga oshmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda yangi ishchi o'rinalarini ochilishiga hamda oilaviy daromadlarning ko'payishiga olib keladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham nutqlarining birida "Yangi ish o'rinalarini tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi". [5] deb bejizga aytmagan. Chunki davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar nafaqat oilaviy korxonalar uchun balki butun iqtisodiyotimiz uchun ham mustahkam asos bo'ladi. Hozirgi kunda yaratilayotgan imkoniyatlar keng ko'lamli bo'lib, tadbirkorlik qilmoqchi bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga imtiyozli kreditlar berish, ularni vaqtincha soliq yuklamalaridan ozod etish, qolaversa tadbirkorlik qilish uchun obyetlar berish shular jumlasidandir. Ammo yaratilgan sharoitlar bilan ish bitib qolmaydi, eng asosiysi esa boshqaruvchi hisoblanadi. Har qanday korxona, firma yoki tashkilot bo'ladimi uni boshqarishni biladigan, ham bilimli ham malakali shaxs talab etiladi. Bunday shaxslarga qo'yiladigan talablar ham, albatta, yo'q emas. Chunki eng muhimi iqtisodiy obyetlarda vazifalarni aniq belgilab olib uni ishchi yoki hodimlarga aniq bo'lib berishdir. Menejment – bu san'atdir. Kompaniya menejeri xuddi derijyor orkestrni boshqorganidek, kompaniyaning mavjud resurslaridan samarali foydalangani holda, uni boshqaradi, kompaniyaning rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi.[6]

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga keldik va quyidagilarni taklif qilmoqchimiz:

1. Yurtimizda oilaviy korxonalar ko'p va iqtisodiy faol faoliyat yuritishi uchun ularga birinchi navbatda huquqiy asoslar yaratilishi kerak.
2. Oilaviy korxona egalari albatta tajribali qolaversa insonlarni boshqarish sanatidan ham xabardor bo'lishi kerak. Shunda qo'l ostidagi insonlarni boshqarish oson bo'ladi.
3. Korxonaning iqtisodiy holati unda amal qilayotgan qoidalarga va hamjihatlikka bog'liq. Shuning uchun boshqaruvchi nafaqa o'z tafliflari balki ishchilarining fikrlarini ham inobatga olgan holda ish yuritishi darkor.
4. Oilaviy korxonalarda asosan bir oila faoliyat yuritishi inobatga olsak, u oilaning ijtimoiy holati ham korxona uchun muhih hisoblanadi. Shuning uchun oila a'zolari o'rtaida bo'ladigan muloqatlarda ham oila boshliqlarining o'rni katta hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [https://lex.uz/acts/-2004956 OILAVIY TADBIRKORLIK TO'G'RISIDA 4-MODDA](https://lex.uz/acts/-2004956)
2. Dilorom Qosimova. "Menejment nazariyasi", "Tafakkur bo'stoni".:T 2011 64-b
3. [https://lex.uz/acts/-2004956 OILAVIY TADBIRKORLIK TO'G'RISIDA 5-MODDA](https://lex.uz/acts/-2004956)
4. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/51664-so-nggi-yillarda-oilaviyzc-korxonalar-soni-qanchaga-kopaygan-2>
5. [https://president.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi](https://president.uz)
6. N.Q.Yo'ldoshev, D.T. Yusupova "Tizimli menejment nazariyasi" "Iqtisodiyot".:T 2019 12-bet